

**SHARQ ALLOMALARI VA ULARNING TIBBIYOT HAQIDAGI
QARASHLARI
EASTERN SCHOLARS AND THEIR VIEWS ON MEDICINE
ВОСТОЧНЫЕ УЧЁНЫЕ И ИХ ВЗГЛЯДЫ НА МЕДИЦИНУ**

Muallif: Yangiboyeva Bushro Baxtiyor qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son Davolash 1-kurs talabasi

E-mail: rebekamarin7@gmail.com

Telefon raqam: +998 99-303-85-97

Ilmiy Rahbar: Avezova Anajon Ko'paysin qizi

1-son O'zbek va Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq allomalari tomonidan tibbiyot sohasiga qo'shilgan ilmiy hissalar, ularning salomatlik, davolash usullari va kasalliklarning oldini olish borasidagi qarashlari yoritilgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zakariyo Roziy kabi olimlarning merosi bugungi zamonaviy tibbiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada Sharq tabobatining asosiy tamoyillari va ularning zamonaviy tibbiyot bilan bog'liqligi haqida ham ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar:

Sharq allomalari, tibbiyot, Ibn Sino, tabobat, sog'liqni saqlash, ilmiy meros, davolash usullari, qadimiy tibbiyot.

Annotation: *This article explores the contributions of Eastern scholars to the field of medicine, highlighting their views on health, treatment methods, and disease prevention. The works of great thinkers such as Avicenna (Ibn Sina), Al-Biruni, and Al-Razi remain significant for modern medicine. The article also discusses the fundamental principles of traditional Eastern medicine and its connections to modern healthcare practices.*

Keywords:

Eastern scholars, medicine, Avicenna, healing, healthcare, scientific heritage, treatment methods, traditional medicine.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научные вклады восточных учёных в развитие медицины, их взгляды на здоровье, методы лечения и профилактику заболеваний. Особое внимание уделяется наследию таких выдающихся личностей, как Ибн Сино (Авиценна), Абу Райхан Бируни, Закария Рази. Также представлены основные принципы восточной медицины и её связь с современной медициной.*

Ключевые слова:

Восточные учёные, медицина, Ибн Сино, лечение, охрана здоровья, научное наследие, методы лечения, традиционная медицина.

Sharq tamadduni — insoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutgan, qadimdan ilmfan, adabiyot, san'at va tibbiyot sohasida ulkan yutuqlarga erishgan sivilizatsiyadir. Ayniqsa, O'rta asrlarda yashab o'tgan Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning ilmiy izlanishlari orasida tibbiyot sohasi alohida o'rin tutadi. Sababi, tibbiyot har qanday jamiyatda eng zarur va doimiy ehtiyojga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Aynan shu sababli qadim zamonlardan boshlab donishmandlar inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarni davolash yo'llarini izlab kelganlar. Sharq allomalari tibbiyot sohasida nafaqat nazariy qarashlar bildirgan, balki amaliy jihatdan ham muhim ishlarga qo'l urganlar. Ular tomonidan yozilgan asarlar asrlar davomida Yevropa ilm-fani rivojida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada ana shunday buyuk allomalar va ularning tibbiyotga doir qarashlari haqida so'z yuritamiz.

Sharq allomalari va ularning tibbiyotga qo'shgan hissasi

Tibbiyot sohasida eng yirik siymolardan biri bu — Abu Ali ibn Sino (Avicenna)dir. U 980-yilda Buxoroda tug'ilgan bo'lib, juda yoshligidanoq ilm-fanga qiziqib, 18 yoshida barcha mavjud fanlarni mukammal o'rganib bo'lgan. Ibn Sinoning eng mashhur asari — "Al-Qonun fi-t-tibb" (Tibb qonunlari) bo'lib, u besh jildidan iborat bo'lgan ilmiy ensiklopediyadir. Ushbu asarda inson organizmi, kasalliklar,

ularni davolash usullari, dori-darmonlar, gigiyena va boshqa ko‘plab muhim masalalar yoritilgan. "Tibb qonunlari" asari 600 yildan ortiq vaqt davomida Yevropa universitetlarida asosiy tibbiyot darsi sifatida o‘qitilgan. "Tib qonunlari" asari o‘z davrida ham, undan keyingi asrlarda ham dunyo tibbiyotining asosiy darsligi sifatida qabul qilingan. [1"Avicenna" article, 2023.]. Mening fikrimcha, Ibn Sino tomonidan yozilgan "Tib qonunlari" asari nafaqat Sharq, balki butun insoniyat tibbiyotining rivojida beqiyos o‘rin tutadi. Ushbu asar 600 yildan ortiq vaqt davomida Yevropa universitetlarida asosiy tibbiyot darsligi sifatida o‘qitilgani — uning ilmiy asoslari, aniqligi va amaliy ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, "Tib qonunlari"ning eng muhim jihati shundaki, u tibbiyotga faqat kasallikni davolash vositasi sifatida emas, balki inson hayotini, uning ruhiy va jismoniy holatini uyg‘un holda saqlash san’ati sifatida qaragan.

Ibn Sino ilm-fanni chuqur bilish bilan birga, axloq, ruhiyat va tabiat qonunlarini ham uyg‘unlashtira olgan. Bugungi kunda ham uning g‘oyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki zamonaviy tibbiyotning insonparvarlik, profilaktika va kompleks davolash tamoyillariga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Asarning ta’siri quyidagi yo‘llarda ko‘rinadi: Yevropada asosiy darslik bo‘lgan. Asar 12-asrda Lotin tiliga tarjima qilingan va G‘arbda "Canon Medicinae" (Tibbiy qonunlar) nomi bilan mashhur bo‘lgan. 12–17-asrlarda Yevropa universitetlarida ushbu asar tibbiyot fanining asosiy qo‘llanmasi sifatida o‘qitilgan. Parij, Montpelye, Bolonya, Oksford, Padua kabi yirik universitetlarda 600 yil davomida darslik sifatida foydalanilgan. Tibbiyotga tizimli yondashuvni olib kirgan. Ibn Sino tibbiyot fanini aniq tartib va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilgan birinchi olimdir. Uning izchil tahlillari zamonaviy klinik metodlarga asos solgan. Farmakologiya va diagnostikani rivojlantirgan Ibn Sino o‘simlik, hayvon va minerallarga asoslangan dorilar haqida batafsil yozib, farmakologiyaning ilmiy asoslarini yaratgan. U simptomlarga qarab kasallikni aniqlash (diagnostika) usullarini ishlab chiqqan — bu hozirgi zamon tibbiyotining asosi hisoblanadi. [Djalilov, M.2020] Gigiyena va profilaktikaga alohida e’tibor bergan. Ibn Sino (Avicenna)ning izchil tahlillari zamonaviy klinik metodlarning asosini yaratdi. U farmakologiya va

diagnostika sohasini sezilarli darajada rivojlantirib, o'simlik, hayvon va mineral manbalarga asoslangan dorilar haqida batafsil yozdi va shu orqali farmakologiyaning ilmiy tamoyillarini shakllantirdi. Shuningdek, Ibn Sino simptomlarga asoslangan kasallikni aniqlash (diagnostika) usullarini ishlab chiqdi, bu esa kasallikni sistematik tahlil qilish va muolajani maqsadga muvofiq yo'naltirishga xizmat qildi. Sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, ruhiy holatning salomatlikka ta'siri haqida chuqur fikrlar bildirgan. Bu fikrlar bugungi zamon salomatlikni saqlash konsepsiyalariga to'la mos keladi. Bugungi kunda Ibn Sinoning merosi tibbiy akademiyalar, tadqiqot markazlari va universitetlar tomonidan o'rganilmoqda. Ko'plab xalqaro konferensiyalar va ilmiy ishlar Ibn Sino tibbiyotiga bag'ishlangan. Uning asarlari hali ham alternativ (muqobil) tibbiyot, fitoterapiya, dietologiya va psixosomatik tibbiyotda qo'llaniladi. Abu Ali ibn Sino va uning "Tib qonunlari" asari butun insoniyat ilm-fani uchun bebaho boylikdir. U nafaqat o'z zamonasining eng ilg'or bilimlarini jamlagan, balki kelajak avlodlar uchun ham tibbiyotning yo'l xaritasini chizib bergan. Uning ilmiy merosi orqali biz tibbiyot nafaqat kasallikni davolash, balki inson salomatligini saqlash, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishi kerakligini ham o'rganamiz. [Sirajiddinov, A.2019]

Yana bir buyuk olim — Abu Rayhon Beruniy. U geografiya, astronomiya, matematika, farmakologiya va tabiiy fanlar bilan shug'ullangan. Beruniy o'zining "Kitob as-saydana fi-t-tibb" asarida dorivor o'simliklar, ularning tabiatga ta'siri va davolash xususiyatlarini keng yoritgan. U 800 dan ortiq o'simlik turini tasvirlab, ularning kimyoviy tarkibi va foydalanish usullarini izohlab bergan. U o'zining chuqur bilimi, keng dunyoqarashi va ilmga bo'lgan cheksiz muhabbati bilan nafaqat Sharq, balki butun jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.. U yoshligidan ilmga nihoyatda qiziquvchan bo'lgan va turli fanlarni chuqur o'rgangan. U arab, fors, yunon, sanskrit, suryoniy va hatto hind tillarini mukammal bilgan. Shu tufayli u turli xalqlarning ilmiy merosini solishtirib, ularni tahlil qilib, yangi ilmiy xulosalar chiqargan. Bu jihatdan Beruniy Sharq va G'arb ilmiy an'analari bog'lab turgan ko'prik vazifasini bajargan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Beruniy tibbiyot sohasida

ham chuqur iz qoldirgan olimdir. U inson salomatligi, ovqatlanish, dorivor o‘simliklar, iqlim va tabiatning inson organizmiga ta’siri haqida juda ko‘p ilmiy kuzatuvlar olib borgan. Uning “Kitob as-saydala fi-t-tibb” (“Tibbiyotdagi dorishunoslik kitobi”) asari butun dunyo farmakologiyasi rivojida beqiyos ahamiyatga ega. Bu asarda u mingdan ortiq o‘simlik, hayvon va mineral kelib chiqishli dorilarni tavsiflab, ularning inson organizmiga ta’siri, tayyorlanish usuli va dozasi haqida aniq ma’lumotlar bergan. Beruniy tibbiyotda dorilarni qo‘llashda ilmiy aniqlik, tajriba va kuzatuv tamoyillariga katta e’tibor bergan. U “har bir dori foyda bilan birga zarar ham keltirishi mumkin, muhim narsa — to‘g‘ri miqdor va to‘g‘ri qo‘llashdir” degan fikrni ilgari surgan. Bu g‘oya bugungi zamonaviy farmakologiya va farmatsiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Shuningdek, Beruniy inson salomatligini faqat jismoniy holat bilan emas, balki ruhiy muvozanat bilan bog‘liq holda talqin qilgan. U shunday degan: “Tana bilan ruh o‘zaro bog‘liq; biri iztirobda bo‘lsa, boshqasi ham sog‘lom bo‘la olmaydi.” Bu fikr bugungi psixosomatik tibbiyot konsepsiyasining erta shakli bo‘lgan, ya’ni ruhiy holatning tanaga ta’siri haqidagi tushunchani Beruniy allaqachon ilgari surgan. Beruniy ilmiy izlanishlarda faqat nazariyaga emas, balki tajribaga, kuzatuvga va hisob-kitobga asoslangan. U fan sohalarini bir-biridan ajratmagan, balki ularni yagona tizimda o‘rganishga harakat qilgan. Uning fikricha, tabiatdagi har bir hodisa bir-biriga bog‘liq, shuning uchun olim dunyoni yaxlit holda tushunishga intilishi kerak. Beruniy insonni tabiatning bir bo‘lagi sifatida ko‘rgan. U tibbiyotda tabiat qonunlariga muvofiq yashash, to‘g‘ri ovqatlanish, harakat, dam olish, poklik va ruhiy tinchlikni sog‘lom hayotning asosiy omillari deb bilgan. Uning sog‘lom turmush tarzi haqidagi fikrlari bugungi zamonaviy gigiyena va profilaktika tibbiyotining tamoyillariga juda o‘xshash. Beruniy tibbiyotni boshqa fanlar bilan, xususan, astronomiya, geografiya, kimyo va matematika bilan chambarchas bog‘lagan. U iqlim, joylashuv, suv sifati, tuproq tarkibi, hatto osmon jismlarining holati ham inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi, degan g‘oyani ilgari surgan. Masalan, u ma’lum bir hududdagi kasalliklar tabiiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lishini tahlil qilib, tibbiyotda geografik muhitning ahamiyatini birinchi bo‘lib ko‘rsatgan olimlardan biridir. Uning

fikricha, har bir tabib faqat dori bilan emas, balki tabiat qonunlarini, inson ruhiyatini, hayot tarzini ham o'rganishi lozim. Chunki inson — bu tabiatning bir zarrasi, tabiat qonunlarini bilmagan tabib to'liq davolay olmaydi.

Ismoil ibn Hasan Jurjoniyy (1042–1137) — o'rta asr Sharq tibbiyotining yirik vakillaridan biri, ilmiy merosi bilan nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham tibbiyot fanining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan olimdir. U asosan Xorazmda faoliyat yuritgan va o'z davrining eng bilimdon tabiblaridan biri sifatida tanilgan.

Jurjoniyyning eng mashhur asari — “Zaxira-i Xorazmshohiy” (“Xorazmshohning xazinasi”) bo'lib, bu asar Sharq tibbiyoti tarixida ensiklopedik manba sifatida alohida o'rin egallaydi. Asar 10 jildan iborat bo'lib, unda anatomiya, fiziologiya, kasalliklarning sabablari, ularning alomatlari va davolash usullari batafsil yoritilgan. Shuningdek, u dorivor o'simliklar, hayvonot va minerallar asosida dori tayyorlash usullarini tizimlashtirgan. Ismoil Jurjoniyyning tibbiyot haqidagi qarashlari inson organizmining tabiiy muvozanati — ya'ni “mizoj” tushunchasiga asoslanadi. U sog'lomlikni to'rtta unsur (issiq, sovuq, ho'l, quruq) muvozanatining barqarorligi bilan izohlaydi. Olim fikricha, kasallik bu muvozanatning buzilishi natijasidir, shuning uchun davolashda asosiy maqsad — bu tabiiy muvozanatni tiklashdir. Jurjoniyy inson salomatligini saqlashda to'g'ri ovqatlanish, jismoniy harakat, toza havo, psixologik osoyishtalik kabi omillarni muhim deb bilgan. U davolashda faqat dorivor moddalarni emas, balki profilaktik choralarni ham asosiy o'ringa qo'ygan. Uning asarlari keyingi asrlarda ko'plab tibbiyot maktablarida, jumladan, Eron, Turkiya, Markaziy Osiyo va Hindistonda darslik sifatida foydalanilgan. Jurjoniyy o'z ilmiy qarashlari bilan Ibn Sino, Beruniy va ar-Roziylarning tibbiy an'alarini davom ettirib, ularni yangi nazariy yondashuvlar bilan boyitgan. [Yusupova.N.A.2019]. Darhaqiqat, Ismoil ibn Hasan Jurjoniyy Sharq tibbiyotining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida, o'z davrida tibbiyot fanini nazariy va amaliy jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan allomadir. Uning ilmiy qarashlari chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, inson salomatligi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik g'oyalariga asoslangan. Ayniqsa, u “Zaxira-i Xorazmshohiy” asarida inson organizmini bir butun tizim sifatida ko'rib, sog'lomlikni

faqat kasallik yoʻqligi emas, balki ruhiy, jismoniy va ijtimoiy muvozanatning mavjudligi deb izohlagan. Ismoil Jurjoniyl oʻz qarashlarida inson salomatligini asrash uchun toʻgʻri ovqatlanish, meʼyorida jismoniy harakat, toza havo, gigiyena va tinch ruhiy holatning ahamiyatini alohida taʼkidlagan. U tibbiy jarayonlarda faqat dori-darmon emas, balki insonning hayot tarzi va muhitini toʻgʻrilashni ham muhim davolash usuli sifatida koʻrsatadi. Bu fikrlar bugungi zamonaviy tibbiyotda asosiy tamoyilga aylangan “profilaktik yondashuv” bilan hamohangdir. Shuningdek, men Jurjoniylning ilmga boʻlgan munosabatini ham yuksak baholayman. U tibbiyot fanini tajriba va kuzatuvga asoslangan aniq fan sifatida qaragan. Boshqa oʻrta asr olimlaridan farqli ravishda, u tabobatni nafaqat diniy-falsafiy tushunchalar orqali, balki ilmiy kuzatish va tahlil asosida izohlagan. Shu jihatdan u Ibn Sino, Beruniy va ar-Roziyl singari allomalar qatorida Sharq tibbiy tafakkurining shakllanishida muhim oʻrin egallagan. Nazarimda, Ismoil Jurjoniylning qarashlari bugungi tibbiyot talabalari uchun ham oʻrnak boʻlishi kerak. Chunki u ilmiy bilim bilan insonparvarlikni uygʻunlashtira olgan. Uning asarlarida shifokorning nafaqat bilimli, balki axloqan pok, sabrli va rahmshafqatli boʻlishi zarurligi haqida chuqur gʻoyalar bor. Bu jihat, meningcha, hozirgi zamon shifokorlarining kasbiy axloq kodeksi bilan hamohangdir.

Umuman olganda, Ismoil Jurjoniyl nafaqat Sharq tibbiyotining, balki umumbashariy tibbiy tafakkurning yirik namoyandalaridan biridir. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, balki zamonaviy tibbiy fan uchun gʻoyaviy manba boʻlib xizmat qilmoqda. Shuning uchun men Jurjoniylni Sharq ilmfani tarixidagi eng ulugʻ tabiblardan biri, inson salomatligini qadrlash madaniyatining timsoli deb bilaman.

Zakariyo ar-Roziyl (Rhazes) ham oʻz davrining buyuk tabibi boʻlgan. Zakariyo Roziyl insoniyat tarixidagi eng buyuk tabiblardan biridir. U nafaqat Sharq tibbiyotining, balki butun jahon tibbiyotining rivojiga katta hissa qoʻshgan. Roziyl oʻz davrida tibbiyotni tajriba va kuzatishga asoslagan, yaʼni u kasalliklarni faqat nazariya bilan emas, balki amaliy tahlil orqali oʻrgangan. Bu yondashuv keyinchalik zamonaviy klinik tibbiyotning shakllanishiga zamin yaratgan. Zakariyo Roziylning eng mashhur

asarlaridan biri — “Kitob al-Hoviy fit-tibb” (“Tibbiyot to‘plami”) bo‘lib, u tibbiyot sohasidagi bilimlarni keng qamrovda jamlagan. Bu asarda u turli kasalliklarning sabablari, belgilari, davolash usullari va dori vositalari haqida batafsil ma’lumot beradi. “Al-Hoviy” asari Yevropada lotin tiliga tarjima qilinib, asrlar davomida tibbiyot darsligi sifatida foydalanilgan. Roziy tabobatda tajriba (eksperiment) usulini birinchi bo‘lib qo‘llagan olimlardan biri edi. U dorilarni hayvonlar ustida sinab ko‘rgan, turli kasalliklarda dorilarning ta’sirini kuzatgan va natijalarni tahlil qilib yozib borgan. Bu orqali u tibbiyotda ilmiy dalillarga tayangan yondashuvni joriy qilgan. Shuningdek, Roziy chechak (ospa) va qizamiq (kor) kasalliklarini bir-biridan farqlagan birinchi tabib hisoblanadi. Bu kashfiyot o‘sha davr tibbiyotida katta inqilob bo‘lgan, chunki shu vaqtgacha bu ikki kasallik bir xil deb o‘ylangan. Roziy gigiyena, sog‘lom ovqatlanish, ruhiy holatning sog‘liqqa ta’siri haqida ham chuqur fikrlar bildirgan. U “eng yaxshi davolash – bu kasallikni oldini olishdir” degan tamoyilni ilgari surgan. U ilk marta ko‘plab kasalliklarni aniqlashda eksperimental yondashuvni qo‘llagan. Uning “Al-Havi” asari kasalliklarni klinik kuzatish asosida tahlil qilgan birinchi asarlardan hisoblanadi. Roziy ilk bor chechak va qizamiq kasalliklarini farqlagan va ularni davolash usullarini ishlab chiqqan. Bu buyuk allomalar ichida Al-Xorazmiy, Al-Fargoniy, Ali ibn Abbos al-Majusi, Ibn Rushd, Ibn Nafis kabi olimlar ham bor bo‘lib, ularning ilmiy ishlari tibbiyot, anatomiya, farmakologiya, fiziologiya kabi ko‘plab yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi. [Ibn Sino. “Al-Qonun fi-t-Tibb” 2005] Haqiqatdan ham, Zakariyo Roziyning tibbiyotga qo‘shgan eng katta hissasi — bu tibbiyotni nazariyadan amaliyotga olib kirgani, ya’ni ilmiy kuzatuv va tajriba asosidagi davolash usullarini yaratganidir. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham qadrlanadi, chunki u insoniyatni sog‘lom hayot sari yo‘naltirgan buyuk allomalardan biridir.

Sharq tibbiyotining asosiy tamoyillari

Sharq tibbiyoti qadimdan insonni tabiat bilan uyg‘unlikda qarab kelgan. Unda inson salomatligi organizmning ichki va tashqi muvozanatiga asoslanadi. Sharq tabobatining asosiy tamoyillaridan biri — organizmda muvozanat va hayotiy kuch (quvvat)ni tiklash hisoblanadi.

Tibbiyotda keng qo'llanilgan usullar quyidagilardir:

- Fitoterapiya (giyohvandlik) — dorivor o'simliklar orqali davolash. Ibn Sino va Beruniy bu borada ko'plab amaliy tavsiyalar berganlar.
- Hijoma — qon olish orqali organizmdagi zararli moddalarni chiqarish.
- Dietoterapiya — ovqatlanish tartibini sog'liqqa mos holda tashkil qilish. Ibn Sino bu haqda alohida bob ajratgan.
- Massaj va jismoniy harakatlar — tanadagi qon aylanishini yaxshilash, mushaklarni faollashtirish orqali davolash.

Sharq tabobati inson salomatligini faqat jismoniy holat bilan emas, balki ruhiy va ma'naviy holat bilan bog'liq deb qaraydi. Insondagi ruhiy iztirob, g'am, stress, qo'rquv kabi holatlar ham jiddiy kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin, degan tushuncha qadimdan mavjud bo'lgan. Shuning uchun Sharq tabobatida davolashda faqat dori emas, balki axloqiy-ruhiy tarbiya ham muhim hisoblangan.

Sharq tibbiyotining zamonaviy tibbiyotga ta'siri Sharq tabobatining eng katta afzalligi — insonni faqat tanadan iborat mavjudot deb emas, balki ruh, qalb va tana uyg'unligida ko'radigan yondashuvda. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot ko'proq kasallikning jismoniy sabablarini aniqlash va davolashga e'tibor qaratadi, ammo inson ruhiyati, stress, ichki muvozanat kabi omillar ham sog'liqqa katta ta'sir ko'rsatishini Sharq tabobati qadimdan bilgan. [G'ulomov, B.2010]. Menimcha, zamonaviy tibbiyot Sharq tibbiyotidan ruhiy-axloqiy tarbiya, tinchlik, meditatsiya, to'g'ri nafas olish, to'g'ri ovqatlanish kabi jihatlarni o'rganib, o'z amaliyotiga qo'shganida yanada samarali bo'ladi. Chunki sog'lom tana — sog'lom ruh bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi zamon tibbiyoti texnologik yutuqlarga asoslangan bo'lsa-da, qadimgi Sharq tibbiyotining ko'plab tamoyillari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan:

Fitoterapiya bugungi kunda ham dorivor vositalar yaratishda asos sifatida qo'llaniladi.

Dietoterapiya shifokorlar tomonidan parhezni asoslashda keng qo'llaniladi.

Ibn Sino va boshqa allomalarning asarlari hali-ham ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Tabiiy davo usullari — akupunktura, hijoma, tozalash muolajalari hozirgi tibbiyotda ham muqobil (alternativ) usul sifatida qo'llanilmoqda.

Shuningdek, Ibn Sinoning psixologik sog'liq, gigiyena, profilaktika bo'yicha aytgan fikrlari zamonaviy tibbiyotda ham o'z tasdig'ini topmoqda.

XULOSA

Sharq allomalari tomonidan yaratilgan tibbiy meros nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamon uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Ularning ilm-fanga, xususan tibbiyotga bo'lgan muhabbati, sinchkovligi, chuqur ilmiy yondashuvi asrlar osha insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Ular nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ruhiy va jismoniy salomatlikni muvozanatda saqlashga katta e'tibor berganlar. Bugungi kunda Sharq tabobatini chuqur o'rganish, uni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish — dolzarb va foydali yo'nalishlardan biridir. Biz yoshlar, bu buyuk allomalarimizning boy merosini o'rganish orqali o'z salomatligimizni saqlash, sog'lom avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash yo'lida katta ishlar qila olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Sino. "Al-Qonun fi-t-Tibb" (Tib qonunlari). Tarjimalar va sharhlar. — Toshkent: Fan, 2005.
2. G'ulomov, B. "Ibn Sino va uning ilmiy merosi". — Toshkent, 2010.
3. Nasriddinov, O. "Sharq tibbiyotining buyuk allomalari". — Toshkent: Sharq, 2018.
4. Djalilov, M. "O'rta asr Sharq tibbiyotining rivojlanishi", ilmiy maqola, 2020.
5. Sirajiddinov, A. "Ibn Sinoning zamonaviy tibbiyotga ta'siri", tibbiyot jurnalida chop etilgan maqola, 2019.
6. Encyclopedia Britannica, "Avicenna" article, 2023.
<https://www.britannica.com/biography/Avicenna>

7. Islamic Medicine Online Archive, "The Canon of Medicine by Ibn Sina", 2021.

<http://www.islamicmedicine.org/canon>

8. Yusupova N.A. — “Sharq allomalari merosi va zamonaviy tibbiyot”, Toshkent tibbiyot akademiyasi nashri, 2019.